

LUIZE GLUKNING “AVERNO” DOSTONI POETIKASI

Nuriddinova Fotima Ilhomjanovna,
University of business and science o'qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18486789>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XXI asr Amerika she'riyatining yetakchi namoyandasi Luize Gluk ijodida klassik mifologiyaning zamonaviy poetik talqini “Averno” dostoni misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda shoiraning minimalistik poetik strategiyasi, psixoanalitik qatlamlari hamda geokultur ramzlardan foydalanish usullari yoritiladi. Xususan, Persephone mifining qayta talqini orqali ayol sub'ektivligi, ichki ruhiy bo'linish, tanlov erkinligi va xotira muammolari poetik jihatdan tahlil etiladi. Maqolada “Averno” dostoni klassik mifologiyani zamonaviy sub'ektivlik va individual ruhiy tajriba bilan uyg'unlashtirgan estetik makon sifatida baholanadi. Tadqiqot natijalari Luize Glück poetikasining global adabiy jarayondagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Luize Gluk, Averno, klassik mifologiya, zamonaviy sub'ektivlik, minimalistik poetika, psixoanalitik talqin, geokultur ramz.

Аннотация. В данной статье на примере поэмы «Аverno» анализируется современная поэтическая интерпретация классической мифологии в творчестве Луизы Глюк - одной из ведущих представительниц американской поэзии XXI века. В исследовании освещаются минималистическая поэтическая стратегия поэтессы, психоаналитические пласты её поэтики, а также способы использования геокультурных символов. Особое внимание уделяется переосмыслению мифа о Персефоне, посредством которого поэтически осмысливаются женская субъективность, внутренняя психологическая раздвоенность, свобода выбора и проблемы памяти. Поэма «Аverno» рассматривается как эстетическое пространство, в котором классическая мифология органично сочетается с современной субъективностью и индивидуальным внутренним опытом. Результаты исследования способствуют определению значения поэтики Луизы Глюк в контексте глобального литературного процесса.

Ключевые слова: Луиза Глюк, Аverno, классическая мифология, современная субъективность, минималистическая поэтика, психоаналитическая интерпретация, геокультурные символы.

Abstract. This article examines the modern poetic reinterpretation of classical mythology in the works of Louise Glück, one of the leading figures of twenty-first-century American poetry, with particular focus on her collection Averno. The study analyzes Glück's minimalist poetic strategy, psychoanalytic layers, and the use of geocultural symbolism. Special attention is paid to the reinterpretation of the Persephone myth as a means of exploring female subjectivity, inner psychological division, freedom of choice, and memory. The article argues that Averno represents an aesthetic space in which classical mythology is integrated with modern subjectivity and individual psychological experience. The findings contribute to a deeper understanding of Louise Glück's poetic method and her significance in contemporary literary discourse.

Keywords: Louise Gluk, Averno, classical mythology, modern subjectivity, minimalist poetics, psychoanalytic interpretation, geocultural symbolism.

Kirish. XX-XXI asr Amerika she'riyatida Louise Gluk ijodi individual poetik ovoz, ichki psixologik chuqurlik hamda klassik mifologik syujetlarni zamonaviy sub'ektivlik bilan uyg'unlashtirishga asoslangan estetik yondashuvi bilan ajralib turadi. Shoiraning she'riy nutqi tashqi bezak, ritorik dabdaba va tasviriy ortiqlikdan xoli bo'lib, lakonik, ixcham va minimalistik shaklda namoyon bo'ladi. Biroq ushbu shakliy soddalik mazmuniy jihatdan murakkablik, semantik zichlik va ko'p qatlamli konseptual tuzilma

bilan muvozanatlashadi. Aynan shu jihat Luize Gluk poetikasini zamonaviy Amerika she'riyatida alohida hodisa sifatida namoyon etadi.

Gluk she'riyatining muhim xususiyati shundaki, u shaxsiy tajriba, ichki ruhiy kechinmalar va ongosti jarayonlarini universal darajaga ko'tara oladi. Shoira lirikasida individual "men" doimo madaniy xotira, kollektiv arxetiplar va tarixiy-mifologik obrazlar bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Bu jarayonda klassik mifologiya estetik bezak yoki intertekstual ishora sifatida emas, balki inson ruhiy tajribasini anglash va ifodalash vositasi sifatida ishlatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'kidlash kerakki, Luize Glukning poetik qarashlari ayniqsa "Averno" dostoni misolida yorqin namoyon bo'ladi. Ushbu asar shoira ijodiy evolyutsiyasida muhim bosqich bo'lib, unda minimalizm, psixoanalitik tafakkur va mifologik ramzlar sintezi yangi darajaga ko'tariladi. "Averno" dostonida antik Persephone mifologiyasi zamonaviy ayol sub'ektivligi, tanlov erkinligi, ichki bo'linish va identitet muammolari bilan qayta talqin qilinadi. Natijada mifologik syujet tarixiy qatlamdan ajralib, zamonaviy ruhiy holatlarning poetik modeliga aylanadi. [2.P.5.]

Shoira estetik prinsiplari, avvalo, minimalistik poetik strategiya bilan belgilanadi. Gluk she'rlarida qisqa satrlar, sodda sintaksis va kam sonli leksik birliklar ustunlik qiladi. Biroq bu minimalizm semantik bo'shliq emas, aksincha, ma'no konsentratsiyasini kuchaytiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Perloff Marjorie fikricha, shoira o'quvchini tayyor xulosalarga yetaklamaydi, balki sukunat, tanaffus va ochiq qolgan semantik maydonlar orqali uni faol talqin jarayoniga chorlaydi. Bu esa "Averno" dostonining poetik ta'sir kuchini yanada oshiradi. [5.P.166]

"Averno" dostoni shoira falsafiy-psixologik izlanishlarini ham mujassam etadi. Unda inson ongining ikkiga bo'linishi, ona-qiz munosabatlaridagi ziddiyatlar, bog'liqlik va erkinlik o'rtasidagi keskinlik psixoanalitik kontekstda yoritiladi. Persephone obrazi ikki dunyo hayot va o'lim, ong va ongosti, bolalik va yetuklik o'rtasida bo'lingan sub'ekt sifatida talqin qilinadi. Bu holat Freud va keyingi psixoanalitik maktablar ta'kidlagan ruhiy bo'linish modeliga yaqin keladi. [3.P.237.]

Demak, "Averno" dostoni Luize Gluk poetikasining estetik, psixologik va madaniy asoslarini jamlagan markaziy asar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu doston orqali shoira klassik mifologiyani zamonaviy inson ruhiy tajribasi bilan uyg'unlashtirib, XX–XXI asr Amerika she'riyatida yangi poetik paradigma yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Luize Gluk poetikasining markaziy estetik tamoyillaridan biri sifatida minimalizm alohida ahamiyat kasb etadi. Shoira she'riy nutqi qisqa satrlar, sodda sintaktik tuzilma va cheklangan leksik birliklar asosida quriladi. Biroq ushbu tashqi soddalik yuzaki ifoda emas, balki ichki semantik zichlik va konseptual chuqurlik bilan muvozanatlashgan poetik strategiya hisoblanadi. Gluk badiiy tasvirni ko'paytirish orqali emas, balki so'zlarni kamaytirish, ortiqcha ritorik vositalardan voz kechish orqali ma'noni chuqurlashtirishga intiladi.

Minimalizm Gluk she'riyatida badiiy shaklning qisqarishi emas, balki ma'noning konsentratsiyalanishi sifatida namoyon bo'ladi. Shoira she'rni yakunlangan, yopiq ma'no tizimi sifatida emas, balki o'quvchi tomonidan faol talqin etiladigan ochiq semantik maydon sifatida quradi. Shu bois Gluk she'rlarida sukunat, tanaffus va aytilmagan mazmun muhim poetik vositaga aylanadi. Perloff Marjoriening ta'kidlashicha, bu xususiyat zamonaviy Amerika she'riyatida minimalizmning psixologik yo'nalishini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.[5.P.162]

Aniqlashimizcha, minimalistik poetika Luize Gluk she'rlarida bir nechta muhim funksiyalarni bajaradi. Birinchidan, u o'quvchini tashqi voqelik tasviridan ichki ruhiy makonga yo'naltiradi. She'riy matnda voqea-hodisalarning batafsil tasviri o'rniga ruhiy holatlar, ichki kechinmalar va ongosti jarayonlar ustuvorlik kasb etadi. Ikkinchidan, minimalizm poetik ovozni individual va samimiy qiladi. Shoiraning lirik "meni" baland patetik ohangdan yiroq bo'lib, ichki monolog va sokin mushohada shaklida namoyon bo'ladi. Uchinchidan, minimalistik uslub mifologik syujetlarning zamonaviy psixologik talqinini ta'minlaydi, chunki mif tashqi syujet darajasida emas, balki ichki ruhiy tajriba sifatida qayta quriladi.

Shoiraning "Averno" dostonida minimalizm ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarda mifologik personajlar, xususan Persephone obrazi tashqi harakatlar orqali emas, balki ichki monologlar, sukunat va semantik tanaffuslar vositasida ochib beriladi. Shoira dramatik voqealarni tasvirlashdan ko'ra, ruhiy bo'linish, tanlov jarayoni va ichki ziddiyatlarni poetik markazga chiqaradi. Natijada she'r tashqi dramatismga emas, balki ichki psixologik intensivlikka asoslanadi. Shu jihatdan, Luize Gluk poetikasidagi minimalizm klassik mifologiyani zamonaviy inson ruhiy holatlarining badiiy modeli sifatida qayta talqin qilish imkonini beradi. "Averno" dostonida minimalistik poetik mexanizmlar mifologik syujetni ichki tajriba va psixologik jarayonlar bilan uyg'unlashtirgan holda, asarning estetik ta'sir kuchini sezilarli darajada oshiradi.

Luize Gluk ijodining muhim va ajralmas jihatlaridan biri uning poetikasiga psixoanalitik qatlamlarning chuqur singdirilganligidir. Shoira lirikasida inson ongosti, xotira mexanizmlari, travma, yo'qotish va identitet inqirozi masalalari markaziy o'rin egallaydi. Ushbu mavzular tashqi voqealar orqali emas, balki ichki ruhiy jarayonlar, sub'ektiv kechinmalar va ongosti impulslar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, undagi ona-qiz munosabatlari, ayol sub'ektivligining shakllanishi va ruhiy bo'linish muammolari "Averno" dostonida yetakchi mavzuga aylanadi.

Gluk she'riyatida psixoanalitik yondashuv bevosita nazariy terminologiya yoki kontseptual izohlar orqali emas, balki ramziy obrazlar, ichki dialoglar va metaforik makonlar orqali namoyon bo'ladi. Shoira psixologik holatlarni izohlashdan ko'ra, ularni poetik tajriba sifatida yashashga majbur etadi. Shu bois Gluk lirikasida ichki monolog, sukut, tanaffus va aytilmagan mazmun muhim poetik vositalarga aylanadi. Bu uslub

zamonaviy psixoanalitik adabiyotshunoslikda “bilvosita ifoda” strategiyasi sifatida baholanadi.

“Averno” dostonida Persephone obrazi psixoanalitik talqinning markazida turadi. U ikki dunyo - ong va ongosti, bolalik va voyaga yetish, bog‘liqlik va erkinlik o‘rtasida bo‘lingan sub’ekt sifatida tasvirlanadi. Persephone nafaqat mifologik personaj, balki ayol sub’ektivligining ichki ziddiyatlarini ifodalovchi ramziy figura sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, ona-qiz munosabatlari dostonning psixoanalitik qatlamida muhim o‘rin tutadi. Demeter va Persephone o‘rtasidagi bog‘liqlik nafaqat mehr va himoya, balki nazorat, yo‘qotish qo‘rquvi va avtonomiya uchun kurash sifatida talqin qilinadi. Bu munosabatlar Julia Kristeva va Luce Irigaray tomonidan ishlab chiqilgan ayol sub’ektivligi va ona obrazining psixoanalitik talqinlari bilan mushtarak jihatlarga ega. Ayniqsa, qizning onadan ajralishi ruhiy yetuklikning muhim, ammo og‘riqli bosqichi sifatida ko‘rsatiladi.

Shoira mifologik syujetni tayyor narrativ shakl sifatida emas, balki inson ruhiy holatlarining poetik modeli sifatida qayta quradi. Natijada antik mif tarixiy-afsonaviy qatlamdan ajralib, zamonaviy psixologik tajribaning badiiy ifodasiga aylanadi. Glukning ushbu yondashuvi mifologiyani psixoanalitik tafakkur bilan uyg‘unlashtirib, “Averno” dostonini XX–XXI asr adabiyotida ruhiy tajribani ifodalovchi muhim poetik matn darajasiga ko‘taradi.

Tahlil va natijalar. Shoiraning “Averno” dostoni 2006-yilda nashr etilgan bo‘lib, Luize Gluk ijodida yangi estetik va konseptual bosqichni boshlab bergan muhim asar hisoblanadi. Ushbu davr XXI asr boshlariga xos bo‘lgan ijtimoiy beqarorlik, global xavotir, shaxsiy izolyatsiya va ekzistensial savollarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, 2001-yildan keyingi Amerika madaniy muhitida xavfsizlik, yo‘qotish, travma va individual ongning zaiflashuvi kabi mavzular adabiy diskursda faol muhokama qilina boshladi. “Averno” dostoni ana shu tarixiy-madaniy vaziyatda inson ruhiy holatlarining murakkabligini poetik shaklda aks ettiradi.

Dostonda insonning ichki bo‘linishi, tanlov erkinligi va yo‘qotish tajribasi markaziy konseptual yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. Gluk bu mavzularni bevosita ijtimoiy voqealar orqali emas, balki mifologik ramzlar va ichki monologlar orqali ifodalaydi. Natijada ijtimoiy inqiroz individual psixologik tajriba bilan tutashtiriladi. Persephone obrazining ikki dunyo o‘rtasidagi holati zamonaviy insonning beqaror identiteti va doimiy tanlov holatini ramziy ifodalaydi.

“Averno” dostonida mifologiya nafaqat estetik bezak yoki intertekstual manba, balki *madaniy xotira mexanizmi* sifatida faol ishlatiladi. Antik syujetlar zamonaviy hayot muammolari yolg‘izlik, ajralish, avtonomiya va ichki bo‘linish bilan uzviy bog‘lanadi. A.Yanning fikricha, Shoira mifologik narrativni zamonaviy ruhiy tajribaning badiiy modeli sifatida qayta quradi. Shu orqali mif tarixiy-afsonaviy qatlamdan ajralib, hozirgi zamon insonining psixologik holatini anglash vositasiga aylanadi. [1.P.41.]

Mazkur yondashuv “Averno” dostonini postmodern adabiyotning muhim xususiyatlari bilan bog‘laydi. Asarda intertekstual aloqalar, klassik matnlarning dekonstruktiv qayta o‘qilishi va ko‘p qatlamli semantik tuzilma ustuvorlik qiladi. Gluk antik mifni qat‘iy syujet sifatida emas, balki ochiq talqin qilinadigan ramziy tizim sifatida qo‘llaydi. Bu holat postmodern poetikaga xos bo‘lgan fragmentarlik, noaniqlik va ma‘noning ko‘pligi tamoyillariga mos keladi.

Fikrimizcha, “Averno” dostoni nafaqat Luize Gluk ijodidagi estetik burilish nuqtasi, balki XXI asr boshidagi ijtimoiy-madaniy holatlarning poetik aks-sadosi sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Asar orqali shoira zamonaviy inson ruhiy tajribasini klassik mifologiya bilan uyg‘unlashtirib, tarixiy xotira va shaxsiy ong o‘rtasida murakkab poetik makon yaratadi.

Aniqlashimizcha, “Averno” nomi bevosita Italiyadagi Averno ko‘liga ishora qiladi. Antik manbalarda ushbu ko‘l yer osti dunyosiga kirish eshigi, ya‘ni *liminal* makon sifatida tasavvur qilingan. Xususan, Vergiliy va boshqa antik mualliflar asarlarida Averno o‘lim va tiriklik o‘rtasidagi chegaraviy hudud, inson mavjudligining metafizik o‘tish nuqtasi sifatida talqin etiladi. Luize Gluk mazkur geografik makonni an‘anaviy mifologik kontekstdan chiqarib, uni *geokultur ramz* darajasiga ko‘tardi deyish mumkin.

Gluk poetikasida *Averno ko‘li* real geografik obyekt sifatida emas, balki ruhiy holatlarning poetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Doston davomida bu makon ichki zulmat, yo‘qotish, tanlov va ruhiy bo‘linish bilan bog‘liq holatlarni aks ettiruvchi ramziy maydonga aylanadi. Shoira Averno orqali tashqi makon va ichki ruhiy tajriba o‘rtasidagi chegarani yo‘q qiladi, natijada geografiya psixologik va falsafiy mazmun kasb etadi.

Averno ko‘li hayot va o‘lim, ong va ongosti, tanlov va majburiyat o‘rtasidagi *liminal hudud* sifatida talqin qilinadi. Bu yerda Persephone obrazi ikki dunyo o‘rtasida muallaq qolgan sub‘ekt sifatida namoyon bo‘lib, uning holati zamonaviy inson identitetining beqarorligini ifodalaydi. Shoira ushbu makon orqali ayol sub‘ektivligining murakkabligini, ichki bo‘linishini va erkinlikka intilish bilan bog‘liq ziddiyatlarni poetik shaklda yoritadi.

Geokultur ramz sifatida Averno makoni madaniy xotira va individual ong o‘rtasidagi bog‘lovchi vosita vazifasini bajaradi. Antik mifologiyada mavjud bo‘lgan makon zamonaviy psixologik tajriba bilan tutashtirilib, yangi semantik qatlamlar hosil qiladi. Natijada geografik obyekt tarixiy-afsonaviy ma‘nodan ajralib, shaxsiy ruhiy tajribaning ramziy ifodasiga aylanadi. Bu yondashuv Gluk poetikasining asosiy xususiyatlaridan biri klassik mifologiyani zamonaviy sub‘ektivlik prizmasida qayta talqin qilish strategiyasini yaqqol namoyon etadi.

Shu tariqa, “Averno” dostonida Averno ko‘li nafaqat syujet elementi, balki asarning konseptual markazlaridan biri sifatida shakllanadi. Ushbu makon orqali shoira inson ruhiy holatlari, ayol identiteti va mavjudlikning chegaraviy holatlarini chuqur poetik tahlil etadi.

2020-yilda Louise Glukning adabiyot bo'yicha Nobel mukofoti bilan taqdirlanishi uning poetikasining nafaqat Amerika adabiy muhitida, balki global miqyosda ham yuksak e'tirof etilganidan dalolat beradi. Nobel qo'mitasi o'z rasmiy bayonotida shoira qat'iy go'zallikka ega, aniq va sof poetik ovozi orqali individual tajribani universal insoniy holat darajasiga ko'tara olishi'ni alohida ta'kidlagan. Ushbu baho Gluk ijodining asosiy estetik tamoyillari soddalik, ichki psixologik chuqurlik va konseptual aniqlikni jamlagan holda berilgan umumlashma sifatida e'tiborga loyiqdir.

Mazkur e'tirof, avvalo, "Averno" kabi asarlarda yorqin namoyon bo'lgan poetik yondashuvlar bilan chambarchas bog'liqdir. Gluk poetikasida minimalizm tashqi shakliy cheklanish emas, balki ichki ma'no konsentratsiyasining kuchayishi sifatida namoyon bo'ladi. Shoira individual kechinmalarni baland ritorika yoki dramatik effektlar orqali emas, balki sokin, ichki ovoz va ramziy ifodalar orqali yetkazadi. Bu holat uning she'riyatini zamonaviy adabiyotda alohida estetik hodisaga aylantiradi.

Shuningdek, Gluk ijodida psixologik chuqurlik va ruhiy tajribani poetik tahlil qilish Nobel qo'mitasi tomonidan e'tirof etilgan muhim jihatlardan biridir. Shoira inson ongosti, xotira, travma va yo'qotish kabi murakkab ruhiy holatlarni bevosita tasvirlashdan ko'ra, ularni mifologik ramzlar va ichki dialoglar orqali badiiy ifodalaydi. Aynan shu yondashuv "Averno" dostonida klassik mifologiyaning zamonaviy psixologik talqiniga zamin yaratadi.[2.P.32.]

Nobel mukofoti bilan bog'liq baholashda Glukning klassik mifologiyani zamonaviy sub'ektivlik bilan uyg'unlashtirish mahorati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shoira antik syujetlarni tarixiy-afsonaviy qatlamda qoldirmay, ularni madaniy xotira va zamonaviy insoniy tajriba bilan bog'laydi. Natijada mif universal semantik maydonga ega bo'lib, shaxsiy hayot, ayol identiteti va mavjudlik masalalarini anglash vositasiga aylanadi. Bu jihat Gluk poetikasining universalligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu tariqa, Luize Glukning Nobel mukofoti bilan taqdirlanishi tasodifiy hodisa emas, balki uning ko'p yillik izchil ijodiy izlanishlari, estetik qat'iyati va poetik konsepsiyasining mantiqiy natijasidir. "Averno" dostoni esa ushbu estetik qarashlarning markaziy ifodasi sifatida shoira adabiy merosida alohida o'rin tutadi. Gluk poetikasi individual tajribani madaniy xotira va universal insoniy savollar bilan bog'lab, XXI asr she'riyatida muhim estetik paradigma yaratganini ko'rsatadi.[2.P.31.]

Xulosa. "Averno" dostoni Louise Glück poetikasining estetik, psixoanalitik va madaniy qatlamlarini o'zida mujassamlashtirgan markaziy asar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu doston shoira minimalistik poetik strategiyasi, ichki psixologik tahlilga asoslangan lirik ovozi hamda klassik mifologiyaga yangicha munosabatini bir butun estetik tizimda birlashtiradi. Ayniqsa, Persephone mifining qayta talqini orqali Glück ayol sub'ektivligi, tanlov erkinligi va ruhiy bo'linish kabi masalalarni zamonaviy poetik diskurs darajasiga olib chiqadi.

“Averno” dostoni orqali shoira klassik mifologiyani tarixiy-afsonaviy qatlamda qoldirmay, uni zamonaviy sub’ektivlik va individual ruhiy tajriba bilan uyg’unlashtiradi. Natijada mif madaniy xotiraning passiv unsuri emas, balki hozirgi zamon insonining ichki holatlarini anglash va ifodalash vositasiga aylanadi. Bu yondashuv Gluk poetikasini XXI asr she’riyatida alohida estetik hodisa sifatida belgilab, uning ijodini zamonaviy adabiy jarayonda muhim poetik makon sifatida e’tirof etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Assmann, Jan. Cultural Memory and Early Civilization. – Cambridge: Cambridge University Press, 2011.
2. Glück, Louise. Averno. – New York: Farrar, Straus and Giroux, 2006.
3. Freud, Sigmund. The Interpretation of Dreams. – London: Hogarth Press, 1953.
4. Kristeva, Julia. Black Sun: Depression and Melancholia. – New York: Columbia University Press, 1989.
5. Perloff, Marjorie. 21st-Century Modernism: The “New” Poetics. – Oxford: Blackwell Publishing, 2002.
6. Turner, Victor. The Ritual Process: Structure and Anti-Structure. – Chicago: Aldine Publishing, 1969.
7. Vendler, Helen. Poems, Poets, Poetry: An Introduction and Anthology. – Boston: Bedford/St. Martin’s, 2009.
8. Virgil. The Aeneid. Trans. R. Fitzgerald. – New York: Vintage Classics, 1990.

Ajnlivaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934